



ПОЧТА АЛОQАLARI TARAQQIYOTIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY ASOSLAR

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna

TATU Qarshi filiali dotsenti

Davlatov Diyorbek Baxtiyor o'g'li

Pochta aloqalari texnologiyalari yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, pochta aloqalari rivoji uning tarixi va bugungi kunda rivojlanish omillarining biri sifatida telekommunikatsiya texnologiyalarining roli va ahamiyati haqida ushbu maqolada so'z yuritildi. Shuningdek, pochta aloqalari tarixida buyuk davlat arbobi Amir Temurning xissasi, O'zbekiston Respublikasida pochta aloqalarining huquqiy asoslari sifatida qabul qilingan qonunda keltirilgan asosiy tushunchalar haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: pochta aloqalari, adresat, kurerlik jo'natmalari, posilka, Amir Temur.

Kirish: Avvalo, dastlabki yozishmalarni tashigan kabutarlar ekanligini juda yaxshi anglaymiz. Bugungi kunga kelib esa pochta tushunchasiga maxsus jo'natmalarni ham kiritib misol keltira olamiz. Bo'ski, taraqqiyot o'zaro xat almashishning yanada qulay va zamonaviy vositalarini, telekommunikatsiya texnologiyalari va ayni kunlarda xatto sun'iy intellekt yordamida taraqqiy etish sir asrorlarini bizga hadya etib etib ulgurdi. Bu soha rivoji tarixiga nazar tashlasak, turli millat vakillari aloqa almashinuvida nafaqat kabutarlar, balki choparlar, elchialr, vakillar, xatto iste'mol mahsulotalri orqali amalga oshirganliklarining ham guvohi bo'lamiz, Jumladan, Movorounnaxr tarixida o'z qurgan saltanatda xat almashinuvgina emas, balki aloqa, ma'lumot almashinish vositalarining turli tumanligi va g;ayritabiiyligi bilan bugungi kunda ko'pchilik olimlar va soha vakillarini hayratlantirgan Amir Temurning tadbirlari talaygina. Jumladan, Amir Temur saroyida mehmon bo'lgan Rui Gonsales de Kalavixoning sayohat kundaliklarida keltirilishicha, Temur saroyida xatlar shunchalik tez yetkazilar ediki, unshu xatlarni yetkazuvchi choparlar, har bir davlatda minib kelgan ulovlarini almashtirish imkoni mavjud edi. Shuningdek, afsonalarga ko'ra yigirma olti davlatni muxtasar aylagan Amir Temur davlatida osoyishtalik va karvon yo'llaridagi qaroqchilarga qarshi kurashish choralari bu xat tashuv aloqalarida as qotar edi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasida yozilishicha "Temurbek zamonida Samarqanddan chiqqan bola boshida bir lagan tillo bilan yo'lga chiqar ekan Rum davlatiga qadar brogan taqdirida ham uning bir tillosi kamamymay borar edi". Mana shunday osuda zamon bo'lishiga qaramasdan, Sohibqiron Amir Temur har bir malakatda oddiy tilanchi, savdogar, mirob kiyimidagi shaxslardan josuslar, xat tashuvchilar, ma'lumot yetkazuvchilar, xabarchilar sifatida foydalanar ediki, ular bir birini tanimas, Temurbekka xalqning



xolidan xolis xabar yetkazishlari uchun esa ular bir hududdan uch kishidan tashkil topgan edi. Bu esa yetkazilgan axborotning xolisligini, shaffofligini ta'minlashga xizmat qilar edi. Mana shunday buyuk o'tmishimiz vakillari tashkil etgan aloqa almashinish strategiyalari keyingi asrlarda ham Yevropa va Sharq mamlakatlari podshohlani o'rgangan muhim ilmlardan sanalgan.

Barcha soha vakillariga yaxshi ma'lumki, har yili butunjahon pochta aloqal hodimlari 9 oktyabrni — Butunjahon pochta kuni sifatida nishonlashadi. Bu kunning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1874 yil 9 oktyabr kuni Shveysariya poytaxti Bern shahrida Butunjahon pochta ittifoqi (BPI) tashkil topgan edi. Bu kunni "Butunjahon pochta kuni" deb e'lon qilish haqida 1969 yili Tokioda bo'lib o'tgan Butunjahon pochta ittifoqining navbatdagi Kongressida rasman qaror qabul qilingan edi.

Butunjahon pochta kuni tashkil etilishining asosiy maqsadlaridan biri pochta sohasini davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy va davlatlararo aloqalarni texnologik tez suratlar bilan taraqqiy etib boryorgan sohani rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini tatbiq etish edi. Ikkinchi maqsad esa, Butunjahon pochta ittifoqigaga a'zo davlatlar tomonidan milliy pochta xizmati faoliyatiga oid tadbir dasturlari qabul qilinib, ommaviy axborot vositalari orqali aholini tanishtirishdan iborat edi.

Ayni mana shu maqsadlarga ergashgan holda 1994 yili O'zbekiston Respublikasi Butunjahon pochta ittifoqiga to'la huquqli a'zo davlat sifatida qabul qilinib, bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlari bilan xalqaro pochta almashinuvlarini texnologik rivojlangan vositalar- tez va sifatli amalga oshirib kelmoqda.

Pochta xizmatlarini texno usullar vositasida mamlakatimizda rivojlanish omillari deganimizda qo'yidagilar fikrimizni oydinlashtiradi: Avvalo bu sohaning har taraflama rivojlanishini yo'lga qo'yish maqsadida sohaning Qonuniy faoliyati mustahkamlandi. Bu yo'lda 2022 yil 9 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun to'laqonli ushbu soha rivojining huquqiy poydevosi bo'la oldi. Teranroq anglash uchun esa ushbu qonunning 3-moddasiga ko'ra, yurtimizda pochta haqida asosiy tushunchalar qo'yidagicha belgilangan:

adresat — o'ziga pochta yoki kurerlik jo'natmasi jo'natilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

yo'zma xat-xabarlar — oddiy va ro'yxatga olinadigan xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, ko'zi ojizlar uchun jo'natmalar va "M" qoplari;

kurerlik jo'natmalari — jo'natilishi pochta kureri orqali amalga oshiriladigan, hujjatlar va (yoki) tovar joylanmasi mavjud bo'lgan jo'natmalar;

posilka — belgilangan o'lchamdagi, og'irlikdagi va o'rovdagi tovar joylanmasi mavjud bo'lgan, ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmasi;



pochta aloqasi — pochta aloqasi vositalari va ob'ektlarining yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuidan iborat bo'lgan, pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlaydigan aloqa turi;

pochta aloqasi vositalari — pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish uchun foydalaniladigan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, uskunalar, taralar, texnika va transport vositalari;

pochta aloqasining milliy operatori — O'zbekiston Respublikasi doirasida pochta aloqasi xizmatlari bozoridagi talabni qanoatlantirish, majburiy ravishda universal pochta xizmatlari ko'rsatish bo'yicha vazifalarni va Umumjahon pochta ittifoqining hujjatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'z zimmasiga yuklatilgan pochta aloqasi operatori;

pochta aloqasi ob'ektlari — pochta aloqasi operatorining alohida bo'linmalari (pochtamlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari, punktlari, shuningdek boshqa bo'linmalar);

pochta aloqasi operatori — mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida pochta aloqasi tarmog'iga egalik qiluvchi va faoliyatning asosiy turi sifatida pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

pochta aloqasi provayderi — pochta aloqasi operatorlarining tarmog'i orqali pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

pochta aloqasi tarmog'i — pochta aloqasi vositalari, ob'ektlari va pochta yo'nalishlarining majmui;

pochta va kurerlik jo'natmalarini jo'natish — pochta va kurerlik jo'natmalarini qabul qilish, ularga ishlov berish, ularni saqlash, tashish, yetkazib berish (topshirish) bo'yicha texnologik operatsiyalar majmui;

pochta jo'natmalari — pochta jo'natmasida ko'rsatilgan pochta manzili bo'yicha adresatga jo'natish uchun pochta aloqasi operatori yoki provayderi tomonidan qabul qilingan yozma xat-xabar jo'natmalari, posilkalar, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari...

Bugungi kunda telekommunikatsiya texnologiyalari takomili xususan, Internet rivoji va butun dunyoda pochtaning an'anaviy xizmatlariga talab kamayishi dunyoda pochta operatorlarining daromadiga ham salbiy ta'sir eta boshlagach, ba'zi mamlakatlar buni davlat subsidiyalari bilan hal qilsa, boshqa operatorlar yangi muqobil daromad manbalarini topish maqsadida transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirishmoqda.

Har bir soha zamon bilan hamnafas bo'lib, o'z faoliyatiga yangiliklarni singdira olsagina jamiyatda o'rnini mustahkamlab boraveradi. Shu ma'noda ko'plab davlatlarda, xususan, O'zbekistonda ham pochta mijozlari o'z uylaridan chiqmasdan turib jo'natmalarini veb-sayt, mobil ilova yoki Telegram bot orqali rasmiylashtirishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Kompaniya vakillari bu tizim ortiqcha qog'ozbozlikni qisqartirishga yordam beradi. Shuningdek, logistika tizimi



orqali mijozlarga o'zlarining jo'natmalarini onlayn kuzatib borish (tracking) imkoniyati ham mavjud. Bu esa jo'natmalarning qaysi bosqichlardan o'tib kelayotgani haqida ma'lumot berib boradi. Shu o'rinda pochta bilan bog'liq yana bir texnika imkoniyatlari ham sinab kelinmoqda: bu pochta-dronlar bo'lib, 100 kilogrammgacha yuk tashiy olar va bir kunda 2 ta reysni amalga oshira olar ekan.

Xulosa qilib aytganda, kecha insoniyat tasavvurlariga sig'as darajadagi pochta aloqalari tarixida ma'lumotlar va xabarlar almashinishi qanchalik soda bo'lsa, bugun hayoliy qarashlari real hayotga ko'chib bormoqda. Ertangi kelajakda esa, dronlar maktublarni aholi punktigacha olib borishi, qabul qiluvchiga esa mahalliy pochta yetkazib berishi lozim bo'ladi. Bir paytlari kabutarlar qilgan xizmatni dronlar to'liq "qo'lga olib", yuk jo'natmalari osmon bo'ylab yetkazilayotganiga ko'zingiz tushsa, ajabmas.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirsaid Aripov. Internet va pochta aloqalri asoslari: Toshkent.: 2000. 132 P.
2. Броди Ян. Продающие рассылки. Москва. 2014. 208 С
3. <https://en.wikipedia.org>
4. manba uza.uz
5. Z. Yaxshiyeva. DEVELOPMENT OF A MULTIMEDIA E-LEARNING RESOURCE FOR LEARNING ENGLISH. GOLDEN BRAIN, 2023.
6. Z.R.Yaxshiyeva. HISTORICAL REALITY AND ITS ARTISTIC INTERPRETATION. NeuroQuantology, 2022.
7. YZ Rashidovna. INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIDGIA TEMUR OBRAZI YORITILISH USLUBLARI.
8. Z Rashidovna - «RAUF PARFI IJODINING MA'NAVIY-MA'RIFIY OMILLARI, 2023.
9. YZ Rashidovna. JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR OBRAZI TALQINLARINING QIYOSIY TADQIQI.
10. Z Yaxshiyeva - XVI ASR INGLIZ ADABIYOTIDA YORITILGAN TEMUR OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI. - Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. 2023.